



NATIONAL IN INCREASING STUDENT KNOWLEDGE THE PLACE OF VALUES

Rakhmanova Muqaddas Qahramanovna,
Ph.D., Teacher of ChDPI Tashkent region,

Mirjalilova Bargida Baxadirovna
TVCHDPI Master, lazizbek_9400@mail.ru +99891 226 92 25

Annotation

This article highlights the issues of introduction of universal and national values into the educational system and their advantage for training improvement. The author emphasizes the national values as a connection link between the past and the present.

Key words. Education, development, values, society and person, ability, skill, profession, teacher, psychologist, universal, experience, national, continuous education.

Jamiyat va davlatning kelajagi asosan yoshlarning qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq bo'ladi. Sababi, yoshlar uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlarda faollashadi hamda ular ijtimoiy munosabatlarning subyekti sifatidagi harakatlantiruvchi shaxsga aylanadi. Mazkur jarayonda uzluksiz ta'lim tizimining o'rni katta.

Qadriyatlar va madaniyat me'yorlari, san'at, axloq, ma'naviy sohadagi barcha yutuqlar inson shaxsiga qaratilgan bo'lishi, yaxlit pedagogik jarayonning barcha tuzilmalari bo'ylab singib o'tishi va u bo'lajak mutaxassisning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi lozim. Bundan ayon bo'ladiki, pedagoglarni tayyorlash keng madaniy rivojlanish negizida amalga oshirilishi kerak.

Madaniy-insonparvarlik yondashuv, uning faoliyatli va ijodiy tavsifi, individual yondashuvi talabalarda mavjud vaziyatga va o'z kasbiga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantiradi.

Qadriyatlar insonning shaxs sifatida shakllanishiga, xulqiga, ma'naviy olamiga, tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatuvchi kuchdir. Qadriyatlearning o'quvchi-yoshlar ongiga singdirishda birinchi galda oiladan boshlansa, keyinchalik, maktabgacha tarbiya, mакtab va boshqa ta'lim muassasalarida davom etadi. Albatta, umuminsoniy qadriyatlar bilan birga dunyodagi har bir xalqning o'ziga xos o'z milliy qadriyatları ham mavjud. Har bir millat o'z intellektual darajasining rivojlanishida ulardan keng foydalanadi, jamiyatga joriy etib, xalqaro munosabatlarda namoyon etadi. Qadriyatlarni asrash, keyingi avlodlarga o'tkazish, rivojlantirish

qadimdan eng muhim umuminsoniy vazifalardan sanalib kelinadi.

Aynan, qadriyatlar o'tmish va kelajakni birlashtiruvchi, bog'lovchi mustahkam ko'prik, bo'g'in ekanligi hayotda o'z tasdig'ini topgan. Qadriyat shaxsning kasb sohasini yanada chuqur o'zlashtirishiga, faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ta'lim aksiologiyasini tiklash va rivojlantirish birinchi darajali muhim vazifa sanaladi. O'qituvchilar, talabalarning ta'lim sifatiga nafaqat bilim, malaka va mahoratni egallashlari, shuningdek, tanqidiy fikrlay olish, atrofda yuz berayotgan barcha voqealarni axloqiy nuqtai nazardan baholay olishlari ham kiradi. Inson xulqi (o'qimishliligi)ning darajasi ham shundan kelib chiqadi.

Biz tadqiqotimiz davomida talabalarda so'rvonomalar o'tkazdik. Unda 700 nafardan ortiq talaba ishtirok etdi. So'rov o'tkazishdan maqsad talabalarda qadriyat yo'naliшlarining rivojlanish darajasini aniqlashdan iborat edi. Shu bois, ularga bir qator y o'nalishlarda so'rvonoma savollari berildi.

O'qish siz uchun qiziqarlimi? degan savolga quyidagicha javob olindi:

"juda qiziqish bilan o'qiyman, ta'lim faoliyati yoqadi" – 57%, "javob berishga qiynalaman" – 31%, "o'qish qiziq emas, zaruriyat yuzasidan o'qiyman" – 12%. Hayotiy maqsadlarning jalb etuvchi



tomonlari nimada? 77 foiz talabada yuqori daromadga intilish kuchli ekan. So'rovda ishtirok etgan talabalarning 70 foizi o'z oilasini hayotiy maqsadlar ro'yxatida ikkinchi o'ringa qo'ygan. Hayot lazzatlaridan foydalanib qolish va vaqtini xursandchilik bilan o'tkazish kerak, deb hisoblovchilar – 29%, shuningdek, dam olish, o'yin-kulguni asosiy maqsad, deb hisoblovchilar 19 foizni tashkil etdi. Faqat 11% talabagina boshqalar uchun, umumiylar farovonlik uchun xizmat qilish istagidaligini bildirishgan. Oliy o'quv yurtida ta'lim olish vaqtida talaba faqat kasbni o'zlashtiribgina qolmay, shu bilan birga, o'zi uchun ma'lum bir hayotiy pozitsiyalarni hosil qiladi. Talabalar qabul qilgan qadriyatlarga muvofiq ularning xulqi kelib chiqadi, ularning atrof dunyo bilan munosabati shakllanadi.

Hayotiy qadriyatlarni ma'lum bir guruhlarga bo'lishganini qayd etib o'tish kerak. Talabalar uchun "yuqori maosh" nisbatan asosiy omil sanalgan. Ya'ni yoshlarning intilishi yuqori, hech kim oz narsa bilan qoniqish hosil qilmagan. Bu shundan dalolat beradiki, ayni holatda keng ishbilarmonlik tashabbusi ham mavjudligini ko'rish mumkin. Ko'pchilik yoshlar aynan shu qadriyatni birinchi o'ringa qo'ygan. Bu esa, bozor iqtisodiy qadriyatlariga tayanadigan yangi avlod to'g'risidagi fikrni tasdiqlaydi.

Ikkinci guruh qadriyatlar – "ishonchli, sevimli kishisi bo'lishi", "yaxshi do'stlar", "ruhiy xotirjamlik", ya'ni "axloqiy-psixologik" qadriyatlardir. Talabalarimiz shunday navqiron, romantik yoshdaki, bu davrda ularga shunchaki yaxshi insongina emas, ayni paytda, ishonchli, ruhiy xotirjamlikni saqlay oladigan do'st ham kerak bo'ladi.

Ochig'i, boshqa barcha omillar talaba yoshlar uchun alohida e'tiborga molik emas. So'rvnomalar ro'yxatining ikkinchi qismidagi "qiziqarli ish", "sof vijdon", "kasbiy yutuqlar" shundan dalolat beradiki, talabalar o'z kasb karyerasidan ko'ra ijtimoiy va moddiy muvaffaqiyatlar to'g'risida qayg'urishadi.

Talabalarning ta'lim olish davrida hayotiy qadriyatlar tizimi o'zgaradimi? Deyarli yo'q.

Qadriyatlar tizimi yetarli darajada inertsiyon, ta'lim olish yillari esa juda tez o'tib ketadi. Ammo hayotiy qadriyatlar tizimidagi ayrim siljishlarni tadqiqotda ishtirok etgan yoshlarda kuzatish mumkin.

Shaxsning yashash va ishlashga qodirligi borasidagi muhim xususiyat –bu uning o'z hayoti, faoliyati oqibatlari uchun javobgarligi sanaladi. Talabalar kelajak uchun o'z javobgarligini anglab yetadi. Ko'pchilik talaba ularning kelajagi ko'proq shaxsan bunga bog'liq, deb hisoblaydi, garchi bunda otanonalar, ta'lim olish sifati va omad ma'lum rol o'ynasa ham.

Ular o'z vatani, shahar va qishloqlari taqdiriga nisbatan befarq emas. "O'z shahar va qishloqlarida yoqimli, yaxshi hayot sharoiti bo'lishi uchun nimalar kerak", degan savolga ko'pchilik talaba, avvalo, "tozalik, orastalik va tartib-intizom, undan keyingina sport inshootlari, dam olish joylari va hokazo" shaklida javob berishgan.

Tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilgan holda quyidagicha xulosaga kelindi: kasbiy qadriyatlar ustuvorligi anchayin o'sganligi (tajribagacha – 25,6%, tajribadan so'ng – 29,6%) kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichning ijobjiy dinamikasi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy sifatlarini shakllantirish bo'yicha ish natijalarini aks ettiradi. Tajribadan so'ng, shuningdek, talabalarning qadriyat yo'naliishlari axloqiy (13,4% – 19,1%) va ma'naviy (13,0% – 14%) qadriyatlar tomonga ijobjiy siljigani ko'zga tashlanadi. Bu bejiz emas, albatta, chunki ma'naviy axloqiy qadriyatlarga tayanish mutaxassis kasb mahoratining asosiy mezoni sanaladi.

Eng avvalo, mustaqillik sharoitida O'zbekiston xalqining ta'lim tizimini rivojlantirish, yosh avlodni tarbiyalash borasida o'z mustaqil yo'lini tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu yo'l xalqning boy, madaniy-tarixiy an'analariga, umuminsoniy qadriyatlarga, dunyo va mamlakatimiz pedagogikasi yutuqlariga tayanadi.



Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uzlusiz ta'lim tizimining milliy modeli, o'ziga xos tuzilmasi, mustaqillik, yangilanayotgan jamiyat va uning qadriyatlari natijasi va yutuqlaridir.

Jamiyat va ta'lim qadriyatlari ijtimoiy institut sifatida doim o'zgarib turadi va aniqlanadi. Biroq, asrlar davomida ushbu o'zgarishlarning ilg'or yo'nalishi o'zgargani yo'q. Uning asosiy mohiyati – insonga, uning huquqlari, erkinliklariga va o'zaro ta'sir me'yorlariga, jamiyatdagi muloqotga qaratilganligi shundayligicha saqlanib qoldi.

Hozirda mamlakatda mavjud sharoit bois, umuminsoniy, milliy-madaniy qadriyatlar ta'lim mazmuni va uni tashkil etishga, uning axloqiy va madaniy maqsadlariga singdirilgan.

Jamiyat va shaxs ta'limni maqsad, jarayon va natija nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Sanab o'tilgan kategoriylar ijtimoiy va tarixiy nuqtai nazaridan shartlangan. Jamiyat o'z rivojining har bir bosqichida ta'lim oldiga aniq maqsadlarni qo'ydi, ma'lum bir vazifalarni yukladi. Shunga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish va uning mazmuniga, ta'limdagi yakuniy natijaga nisbatan talablar qo'yilgan. Boshqacha qilib aytganda, davlat va jamiyat ta'limga nisbatan ma'lum bir siyosatni olib borib, jamiyatda ishlab chiqilgan qadriyatlarga muvofiq yosh avlodni shakllantirdi.

Bilimlilik ilm, qobiliyat va malakalar majmui sifatida shaxsning ma'naviy-axloqiy va intellektual fazilatlari shakllanishining muhim vositasi sanaladi. Bu shakllanish ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va natijasidir. Aynan shunday sharoitda ta'limda jamiyatni yangilovchi yangi qadriyatlar yaratiladi.

Prezidentimiz tomonidan kuchli ijtimoiy siyosat tamoyiliga berilgan ta'rifga muvofiq mamlakatda o'tish davrining murakkab sharoitida ko'makka muhtoj aholi qatlaminihimoyalash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Natijada, jamiyatda ko'p asrlik xalq an'analari va urf-odatlariga asoslangan mehribonlik, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash, muhtojlarni himoyalash, ko'maklashish qadriyatlari yuzaga keladi hamda rivojlanadi.

Bu qadriyatlar ta'limni tashkil etish va uning mazmuniga, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro tushunish tamoyillari asosiga singdirilishi lozim. Ayni holat pedagogning qiyin vaziyatlarda mushkul ahvolda qolgan o'quvchiga yordamga kelishga tayyorligida va shunga qodirligida aks etishi lozim. Bu uni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy qarshilik yoki ruhiy stressdan ma'naviy muhofaza qilish va turli salbiy ta'sirlarga qarshi mustaqil qarshi turish uchun sharoit yaratish demakdir. Pedagogik himoya muammo va nizolarni hal etish, atrofdagilarning shaxsga nisbatan salbiy ta'sirini bartaraf qilish bo'yicha harakat tizimi sifatida ishtirot etadi.

Ta'lim jarayonida jismoniy, psixologik, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlovchi va yoshlarda o'zini hamda boshqalarni himoya qilish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan choralar tizimini yaratish lozim. Shuningdek, aniq pedagogik harakatlar, shaxs rivojlanishining psixologik va ijtimoiy omillar muvofiqligi, katta yoshdagilar va bolalarning bir-biriga yuqori darajada ishonchli munosabatlari ham nazarda tutiladi, bu esa, bolani butun muammolar va qiyinchiliklardan qurshab turadigan sun'iy sharoit yaratish degani emas.

Pedagogik himoya o'quvchining butun qobiliyatini rag'batlantirish, o'z-o'zini tahlil qilish va nazorat qila olishini rivojlantirish asosida hayotdagi og'ir vaziyatlardan chiqishning aniq usullarini birqalikda izlab topish jarayonida amalga oshiriladi. Bu faoliyat ko'rsatish

(masalan, bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash hamda mustahkamlash), ijtimoiy-pedagogik va psixologik yordam, huquqiy himoya va maslahat yo'nalishlarida himoyalananishning maxsus usullari hamda tarbiya texnologiyasini ishlab chiqish va tatbiq etishni nazarda tutadi.

Erkinlashtirish, jamiyatning ma'naviy yangilanishi shaxs tomonidan o'z ta'lim va kasb, hayot yo'lini tanlash kabi ijtimoiy qadriyatlar haqida qayta fikrlashni shart qilib qo'ydi. Inson harakatlanuvchi va ijodiy subyekt sifatida, o'z hayot yo'lini o'zi belgilovchi va o'zini o'zi namoyon etuvchi shaxs sifatida



to'liq erkin tanlash huquqiga ega. Ammo, aniq bir hamjamiyat a'zosi sifatida boshqa odamlar va jamiyat ehtiyojlari hamda qiziqishlarini tanlashda cheklangandir. Tanlash mohiyatining qaramaqshiligi ham shunda. Tanlash jarayoni ko'plab shartlarni va ularni bajarish bo'yicha qarorlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli o'zining ta'limgarayonida yoshlarda tanlash mas'ul sifatida harakatlanish erkinligini tushunish, faoliyatning o'zgacha yondashuvini ko'ra bilish, tanlash sharoitini bilim va qadriyatlasi asoslash, uning natijalarini, oqibatlarini bashoratlay olish, o'z-o'zini nazorat qilish va cheklashga tayyor bo'lismi shakllantirish muhim vazifa sanaladi.

Yangilanayotgan jamiyat o'z a'zolari o'rtasida birligida harakatlanish, hamkorlik, bag'rikenglik, o'zaro yordamga asoslangan yangi munosabatlarni shakllantiradi.

Ijtimoiy munosabatlarning bu qadriyatlari ta'limgarayonida o'z ifodasini topishi zarur. Avtoritar pedagogikada o'zaro ta'sir, ya'ni birligidagi hamkorlik pedagogning o'quvchiga nisbatan o'zaro ta'siri sifatida, xususan, kattalarning faol xatti-harakati orqali bola xulqini yaratish sifatida, kattalarning tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatishga tayyorligi sifatida talqin qilingan. Agar ilgari pedagogika faol (buyruqbozlik, deyish ham mumkin) va bir tomonlama ta'sir ko'rsatish tamoyiliga qurilgan bo'lsa, hozirgi davr pedagogikasi birligidagi faoliyat tamoyiliga qurilgan. Bu nafaqat pedagoglarning yangicha uyg'unlashuvini shakllantirish, ularning malakasini oshirish, shuningdek, rivojlanishning pedagogikaga mos sharoitini ham yaratishdan iborat. Birligidagi o'zaro faoliyat har doim demokratik shaklda hamkorlarning individual manfaatlarini qabul qilishga asoslanadi.

Pedagog va ta'limgarayonida oluvchilar hamkorlikdagi faoliyat maqsadlariga birligida erishishga imkon beruvchi bunday tizimini yaratish ishonch va qiziqishlariga rioya etishga ko'maklashishga, ta'limgarayonida har bir ishtirokchining o'z qobiliyatini o'zi ochib berishga imkoniyat yaratadi.

O'quv-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etish uchun uning barcha subyektlari – o'quvchilar, sinf va o'qituvchilar, o'quvchi va o'qituvchilar, ta'limgarayonida muassasi ma'muriyati va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro tushunish bo'lishi zarur. O'quvchilar o'rtasidagi o'zaro tushunish o'qituvchi-ning nazorati va avtoritarligiga qarshi birlashish usuli sifatida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zaro kelishib umuman dars tayyorlamasliklari yoki hammasi darsga kelmasliklari mumkin. Bu avvalo, ilgarigi ta'limgarayonida qadriyatlarning o'quv materiallari sur'ati va hajmini "o'rtalashtirish" hamda barcha o'quvchilar uni bir vaqtida o'zlashtirishi shart, pedagog har doim haq, o'quvchi esa har doim o'qituvchi belgilab bergen doirada fikrlashi va harakat qilishi kerak qabilidagi tamoyillarga asoslangani uchun yuz bergen.

O'qituvchi bolalarga nisbatan mehr va ishonch bilan yondashsa, o'quvchilar esa, o'z qobiliyatlarini va qiziqishlarini amalda qo'llashda erkin bo'lgan faoliyat yuzaga kelganda o'zaro tushunishga erishiladi. Ziddiyat va kurash barham topganda, bolalar kattalar maslahatiga rioya qila boshlaganida o'zaro tushunish paydo bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarining har qanday vaziyatda, o'qish yoki hayotiy masalalariga oid qiyin vazifalarni hal etishda chin do'stga aylanadi.

Ta'limgarayonida qobiliyatlarini va iste'dodollarini har tomonlama ochib berishga yo'naltirilganlik, milliy va umuminsoniy ideallarni qondirish, shaxs, jamiyat va atrofmuhit munosabatlarini uyg'unlashtirish, an'anaviy "Ustoz-shogird" asosida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi izzat-hurmat munosabatlarini – ta'limgarayonida subyektlarining o'zaro tushunishlari, hamkorligini ta'minlovchi ta'limgarayonida insonparvarlashtirishning asosiy yo'nalishlaridir.

Bunday vaziyatda har bir o'quvchida ma'lum bir faoliyat turiga nisbatan qobiliyati namoyon bo'ladi. O'zaro tushunish holatida o'quvchilarini kuchli va kuchsizlarga ajratish, xatti-harakat, ta'sir boshqaruvchisi bo'lish yo'qoladi. Ko'rgazmali emas, amaliy jihatdan o'zaro tushunish o'qituvchining o'quvchi shaxsi qadriyatlarni va uning yutuqlarini anglashi orqali ta'minlanadi. Pedagog shaxs rivojlanishini o'rtalashtirilgan me'yor bilan qiyoslamaydi. U bolalarning rivojlanishi uchun shaxsiy



ijodiy g'abalarni oshirish yordamida yoki har bir o'quvchining imkoniyatlaridan imkon qadar keng foydalangan holda umumiy maqsadga erishish uchun sharoit yaratadi.

Shunday qilib, milliy qadriyatlar yosh avlodning nafaqat ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi, shuningdek, kerakli mutaxassislikni egallab, ularni mamlakat va dunyo taraqqiyotida faqat buniyodkorlik uchun yo'naltirishda ham yetakchi kuch sanaladi. Shu bois, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta'lim tizimiga keng joriy etilishi, muntazam tadqiq etib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaldibekova A., Xodjayev B. Pedagogik aksiologya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 49-50-b.
2. Mardonov Sh. Pedagogik ta'lim tizimida talimiylar qadriyatlardan foydalanish. // Xalq ta'limi. – T., 2005. №6. 24-28-b.
3. Бондаревская Е.В., Кульневич СВ. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1999.– С. 50.
4. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства.– Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – С. 239.
5. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла: Дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2002. – С. 48.